



TRANSPORT VA AVTOMOBILSOZLIK SOHALARIDA
KASBIY MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA
TARMOQ KENGASHI

KASBIY STANDART

MAXSUS HARAKATLANUVCHI TARKIBNI BOSHQARISH VA UNGA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH



“Maxsus harakatlanuvchi tarkibni boshqarish va unga texnik xizmat ko‘rsatish” kasbiy standarti 2025-yil 18-dekabrdagi Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha Respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Kasbiy standart shakli” hamda Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrdagi 55-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Kasbiy standartlarni ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga muvofiq, Transport sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

KASBIY STANDART

Maxsus harakatlanuvchi tarkibni boshqarish va unga texnik xizmat ko'rsatish

Reyestr raqami:

UZ-KS-2026-T1.0-0135



I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanilish sohasi: Kasbiy standartning qo'llanilish sohasi: Ushbu Kasbiy standart "Rels pletlarini eltishga mo'ljallangan maxsus sostav mashinisti", "Relsjilvirlash poyezdi mashinisti", "Rels payvandlash o'ziyurar mashina mashinisti", "Temir yo'llarni ta'mirlash letuchkasi mashinisti", "Temir yo'lni dinamik stabillash mashinisti", "Temir yo'lni rixtovkalash dastgohlari mashinisti", "Tor (keng) temir yo'l yotqizuvchi mashinisti" va "Yo'l strugi mashinisti" kasb (lavozim)lari uchun ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda, kasbiy malakalarni mustaqil baholashda, shuningdek, tashkilotlarda xodimlarni boshqarish sohasida keng ko'lamli masalalarni hal qilishda qo'llaniladi.

2. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

DACUM – korxonaning tajribali xodimlaridan iborat ekspert guruhlarida tuzilgan guruh muhokamalarini o'tkazish usuli;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

iqtisodiy faoliyat turi – savdo uchun mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) maqsadida u yoki bu turdagi resurslarni (uskunalar, mehnat, texnologiya va boshqalar) birlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

mehnat funksiyasi – kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

norasmiy ta'lim – ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobil shakli;

baholash mezonlari – kasbiy malakani aniqlash jarayonida qo'llaniladigan, bilim, ko'nikma va malakalarni o'lchash uchun belgilangan talablar majmui;

kasbiy kompetensiya – belgilangan kasbiy faoliyatni samarali bajarish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va shaxsiy fazilatlar yig'indisi;

lokomotiv – temir yo'l izlari bo'ylab poyezdlar va alohida vagonlarni olib yurish uchun mo'ljallangan temir yo'l tortish tarkibi;

mashinist – transport nazorati inspeksiyasi tomonidan berilgan amaldagi mashinist guvohnomasiga va harakatdagi tarkib harakati xavfsizligi uchun mas'ul bo'lgan, tortish harakatdagi temir yo'l tarkibini mustaqil boshqarish huquqiga ega bo'lgan temir yo'l transportidagi mutaxassis;

ekspluatatsiya – lokomotiv, shuningdek, o'ziyurar mashinalardan foydalanish va uni ishlashga tayyor holda saqlash jarayoni;

texnik xizmat – lokomotiv, shuningdek, o'ziyurar mashinalarning uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun profilaktik va rejalashtirilgan xizmat ko'rsatish ishlari;

rejadan tashqari ta'mirlash – lokomotiv, shuningdek, o'ziyurar mashinalarning kutilmagan nosozligi sababli bajariladigan ta'mirlash ishlari;

depo – lokomotiv, shuningdek, o'ziyurar mashinalarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlari olib boriladigan texnik baza;

signalizatsiya – poyezdlar harakatini boshqarish va xavfsizlikni ta'minlash uchun ishlatiladigan yorug'lik va ovozli signallar tizimi;

markazlashtirish va blokirovkalash – poyezdlar harakatini boshqarish va yo'l kesishmalarida xavfsizlikni ta'minlash uchun mo'ljallangan tizimlar;

lokomotiv brigadasi – lokomotiv, shuningdek, o'ziyurar mashinalarni boshqarish va texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha mas'ul xodimlar guruhi;

tormoz tizimi – lokomotiv va poyezdlarni to'xtatish yoki tezligini pasaytirish uchun ishlatiladigan mexanizm;

yo'l holati – temir yo'lining texnik va ekspluatatsion holati, poyezd harakati xavfsizligini ta'minlash uchun muhim omil;

energiya ta'minoti – lokomotiv shuningdek, o'ziyurar mashinalarga zaruriy quvvat yetkazib berish tizimi (elektr, yoqilg'i yoki bug');

favqulodda vaziyat – harakat xavfsizligiga tahdid soluvchi texnik yoki ekspluatatsion holatlar;

marshrut – poyezd harakatlanishi kerak bo'lgan oldindan belgilangan yo'nalish;

blokirovka tizimi – poyezdlar to'qnashuvining oldini olish va xavfsiz harakatni ta'minlash tizimi;

malakaga ega shaxslar reestri – malakani baholash markazlarida kasbiy imtihondan muvaffaqiyatli o'tgan, malaka sertifikatiga va malaka pasportiga ega shaxslar to'g'risidagi doimiy yangilanadigan ma'lumotlar bazasi;

mashinist yordamchisi – temir yo'l transporti tashkiloti (ish beruvchi) tomonidan berilgan amaldagi mashinist yordamchisi guvohnomasiga ega bo'lgan, texnik ijrochilar toifasiga kiruvchi, tortish harakatdagi temir yo'l tarkibini mustaqil boshqarish huquqisiz va o'z mehnat faoliyatida bevosita tortish harakatdagi temir yo'l tarkibi mashinistga bo'ysunuvchi temir yo'l transporti xodimi. Istisno tariqasida, tortish harakatdagi temir yo'l tarkibini mustaqil boshqarishga amaliy sinovlardan o'tish (tayyorgarlik ko'rish) maqsadida tortish harakatdagi temir yo'l tarkibi kabinasida bo'lgan mashinist yordamchisi bundan mustasno;

guvohnoma – belgilangan namunadagi hujjat bo'lib, uning egasiga tortish harakatdagi temir yo'l tarkibini boshqarishda muayyan funksional vazifalarni bajarish huquqini beradi;

tortish harakatdagi temir yo'l tarkibi (keyingi o'rinlarda — tortish harakatdagi tarkibi) – tortish xususiyatlarga ega bo'lgan va temir yo'llarda poyezdlar va alohida vagonlarni olib yurish uchun mo'ljallangan lokomotivlar, motorvagonli harakatdagi tarkib, maxsus o'ziyurar harakatlanuvchi tarkib;

rels pletlari – temir yo'l izlarini yotqizish yoki almashtirishda qo'llaniladigan tayyor rels konstruksiyalari;

relsjilvirlash poyezdi – rels yuzasidagi nuqsonlarni jilvirlash va silliqlash uchun mo'ljallangan maxsus poyezd;

rels payvandlash o'ziyurar mashinasi – relslarni payvandlash, biriktirish va tiklash ishlarini bajaruvchi maxsus harakatlanuvchi texnika;

temir yo'llarni ta'mirlash letuchkasi – temir yo'l infratuzilmasida tezkor ta'mirlash va xizmat ko'rsatish ishlarini bajaruvchi maxsus tarkib;

dinamik stabillash mashinasi – temir yo'l ballast qatlamini zichlashtirish va yo'lining barqarorligini oshirish uchun xizmat qiluvchi texnika;

rixtovkalash dastgohi – temir yo'l izlarini to'g'rilash, tekislash va me'yoriy holatga keltirish uchun mo'ljallangan uskuna;

temir yo'l yotqizuvchi mashina – yangi temir yo'l izlarini yotqizish yoki mavjud relslarni almashtirish uchun ishlatiladigan maxsus texnika;

tortish agregati – yuk yoki maxsus tarkiblarni harakatlantirish uchun mo'ljallangan tortuvchi texnik vosita;

yo'l strugi – temir yo'l yoqasi, ballast va qor qatlamlarini tozalash hamda tekislash uchun mo'ljallangan maxsus mashina;

diagnostika – texnika va uskunalarning texnik holatini aniqlash, nosozliklarni baholash jarayoni;

profilaktik ta'mirlash – nosozliklarning oldini olish va texnik holatni saqlash uchun oldindan amalga oshiriladigan ta'mirlash ishlari.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo'lgan normativ huquqiy hujjatlar:

- O'zbekiston Respublikasining "Temir yo'l transporti to'g'risida" 2024-yil 27-noyabr O'RQ-1006-son qonuni;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 30-sentyabr PQ-345-son qarori;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining (Texnik tartibga solish agentligi) 2025-yil 18-iyul 94/MSt - son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi (IFUT 2.1);

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Transport sohasida kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hamda ilmiy va innovatsion faoliyat tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 28-sentyabr 504-son qarori;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini tartibga solishga qaratilgan ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" 2025-yil 17-iyun 369-son qarori.

4. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi qisqartirishlar qo'llaniladi:

MMR – Milliy malaka ramkasi;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi;

IFUT – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichi;

MMK – Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori;

TTMM – tarmoq tarif malaka ma'lumotnomasi.

II. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi:	Maxsus harakatlanuvchi tarkib va turdosh kasb ishchilari	
2.	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi:	Temir yo'llarda lokomotivlarning harakatlanishini ta'minlash, poyezdlarni yoki alohida vagonlarni ish holatida saqlash.	
3.	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf:	H seksiya: 52. Ombor xo'jaligi va yordamchi transport faoliyati 52.2 Transportda tashish bo'yicha yordamchi faoliyat 52.21 Quruqlik transporti sohasidagi xizmatlar 52.21.0 Quruqlik transporti sohasidagi xizmatlar	
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni:	Tortish harakatdagi temir yo'l tarkibini boshqarish, harakat xavfsizligini ta'minlash, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha talablarni belgilaydi. Ushbu standartga ko'ra, mashinist va texnik xodimlar tortish harakatdagi temir yo'l tarkibining texnik holatini tekshirish, boshqarish va nosozliklarni bartaraf etish bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. Tortish harakatdagi temir yo'l tarkibini boshqarish bo'yicha talablar harakatni boshlashdan oldin dvigatel va asosiy tizimlarni ishga tayyorlash, harakat davomida tezlikni boshqarish, tormoz tizimidan foydalanish va dispetcherlik xizmati bilan aloqa o'rnatishni o'z ichiga oladi. Texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha ishlar harakatdan oldin va keyin tortish harakatdagi temir yo'l tarkibining texnik holatini tekshirish, profilaktik xizmat ko'rsatish, dvigatel, uzatma va tormoz tizimlarini ta'mirlash, elektr jihozlari va signalizatsiya tizimlarini sozlash hamda favqulodda vaziyatlarda nosozliklarni bartaraf etishni o'z ichiga oladi. Ish xavfsizligi va mehnat muhofazasi talablariga rioya qilish zarur bo'lib, bunda elektr toki, mexanik jarohatlar va yong'in xavfsizligi qoidalariga qat'iy amal qilish talab etiladi. Standartga ko'ra, tortish harakatdagi temir yo'l tarkibini boshqaruvchi mutaxassis texnik hujjatlar bilan ishlash, temir yo'l signalizatsiyasi va dispetcherlik tizimlari bo'yicha bilimga ega bo'lishi, tortish harakatdagi temir yo'l tarkibining har xil turlari va ularning asosiy texnik xususiyatlarini tushunishi hamda dvigatel va uzatma tizimlarining ishlash prinsiplarini bilishi lozim. Ushbu kasbiy standart temir yo'l transportining samaradorligini ta'minlash va xavfsizligini oshirishga qaratilgan.	
5.	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi:	Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi malaka darajasi:
		83110014-Rels pletlarini eltishga mo'ljallangan maxsus sostav mashinisti	3
		83110015-Relsjilvirlash poyezdi mashinisti	3

		83110016-Rels payvandlash o'ziyurar mashina mashinisti	3
		83110020-Temir yo'llarni ta'mirlash letuchkasi mashinisti	3
		83110022-Temir yo'lni rixtovkalash dastgohlari mashinisti	3
		83110025-Tor (keng) temir yo'l yotqizuvchi mashinisti	3
		83110027-Yo'l strugi mashinisti	3
		83110021-Temir yo'lni dinamik stabillash mashinisti	4

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
t/r	kodi va nomi:	kodi	nomi	kodi	nomi
1.	83110014-Rels pletlarini eltishga mo'ljallangan maxsus sostav mashinisti	A1.3	Maxsus sostavning texnik holatini tekshirish	A1.01.3	Yurish qismlarini tekshirish (g'ildirak juftliklari, resorlar, ramalar), Tormoz tizimi holatini tekshirish
				A1.02.3	Elektr jihozlari va signalizatsiya tizimini tekshirish, Mahkamlash va tayanch qurilmalarining holatini tekshirish
		A2.3	Rels pletlarini yuklash va tushirish jarayonida ishtirok etish, Relslarning to'g'ri joylashtirilishi va mahkamlanishini tekshirish	A2.01.3	Rels pletlarini yuklashdan oldin maxsus sostavning texnik holatini, yuk qabul qilishga tayyorgarligini hamda barcha tayanch va mahkamlash moslamalarining sozligini to'liq va batafsil ko'zdan kechirish vazifasini bajarish
				A2.02.3	Rels pletlarini sostav platformalariga belgilangan texnologik tartib va me'yorlarga muvofiq ravishda to'g'ri, tekis va muvozanatli qilib joylashtirilishini ta'minlash hamda og'irlik markazining to'g'ri taqsimlanishini nazorat qilish
		A3.3	Poyezdni belgilangan tezlik va rejimda boshqarish, Tormozlash va tezlikni o'zgartirishni silliq amalga oshirish, Signal va belgilar talablariga rioya qilish	A3.01.3	Poyezdni belgilangan tezlik, yo'l sharoiti va yuk og'irligini hisobga olgan holda xavfsiz boshqarish va tezlikni nazorat qilish
				A3.02.3	Tormozlashni oldindan rejalashtirib, tormozlarni silliq qo'llash orqali keskin to'xtashlarning oldini olish
				A3.03.3	Signalizatsiya va yo'l belgilariga qat'iy rioya qilib, svetofor va dispetcher ko'rsatmalarini bajarish
		A4.3	Rels pletlarining siljishi yoki tushib ketishining oldini olish, Favqulodda holatlarda tezkor choralar ko'rish, yo'l brigadalari bilan xavfsiz	A4.01.3	Rels pletlarining harakat vaqtida siljib ketmasligi yoki tushib ketmasligini ta'minlash uchun ularning mahkamlanishini doimiy nazorat qilish

			hamkorlikni ta'minlash	A4.02.3	Favqulodda holatlar yuzaga kelganda vaziyatni tez baholab, zarur choralarni ko'rish va xavfsizlikni ta'minlash
				A4.03.3	Yo'l brigadalari bilan uzluksiz aloqa o'rnatib, ish jarayonida xavfsiz va muvofiqlashtirilgan hamkorlikni ta'minlash
2.	83110015-Rels jilvirlash poyezdi mashinisti	B1.3	Relslarni jilvirlash texnologik jarayonini tashkil etish, boshqarish va samarali amalga oshirish	B1.01.3	Ish hajmini aniqlash, yo'l uchastkasining holatini o'rganish, zarur texnika va uskunalarni tayyorlash, texnologik talablar hamda me'yorlarga muvofiq ishni tashkil qilish
				B1.02.3	Jilvirlash poyezdi harakatini boshqarish, uskunalarni to'g'ri sozlash, ish jarayonida texnologik rejimlarga rioya qilish va jarayonning uzluksiz hamda samarali bajarilishini ta'minlash
		B2.3	Lokomotiv hamda relsjilvirlash uskunalarini kompleks ekspluatatsiya qilish, ularning uzluksiz va ishonchli ishlashini ta'minlash	B2.01.3	Lokomotiv va rels jilvirlash uskunalarining texnik holatini nazorat qilish va profilaktik xizmat ko'rsatish
				B2.02.3	Ekspluatatsiya jarayonida xavfsizlik qoidalariga rioya etgan holda samarali foydalanishni tashkil etish
		B3.3	Temir yo'l harakati xavfsizligini, texnik va texnologik intizomni ta'minlash hamda favqulodda vaziyatlarning oldini olish	B3.01.3	Texnik vositalar, lokomotiv va rels uskunalarining ishonchli ishlashini nazorat qilish, profilaktik xizmat ko'rsatish, texnik nosozliklarni aniqlash va bartaraf etish
				B3.02.3	Temir yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash va boshqarish, yo'l harakati jarayonlarini rejalashtirish, monitoring qilish va xavfsizlik me'yorlariga qat'iy rioya qilish
				B3.03.3	Temir yo'l infratuzilmasi va yo'l qurilmalari holatini muntazam monitoring qilish, yo'l, rels va signalizatsiya tizimlarining xavfsiz va barqaror ishlashini nazorat qilish

	QCL7527			B3.04.3	Texnik va texnologik yangilanishlarni joriy etish va ularning xavfsizlikka ta'sirini baholash, yangi uskunalar, vositalar va texnologiyalarni ekspluatatsiyaga kiritishdan oldin xavfsizlik va intizom talablariga mosligini tekshirish
3.	83110016-Rels payvandlash o'ziyurar mashina mashinisti	D1.3	Temir yo'l relslarini payvandlash ishlarini zamonaviy texnologiyalar asosida o'ziyurar mashina yordamida rejalashtirish, tashkil etish va samarali boshqarish jarayonini amalga oshirish	D1.01.3	Rels payvandlash ishlarini ishlab chiqarish rejasi asosida tayyorlash, ish jarayonini tashkil etish va texnologik ketma-ketlikni belgilash
				D1.02.3	O'ziyurar rels payvandlash mashinasi yordamida payvandlash jarayonini boshqarish, ish samaradorligini ta'minlash va belgilangan sifat ko'rsatkichlariga erishishni nazorat qilish
		D2.3	Rels payvandlash o'ziyurar mashinasini to'g'ri va xavfsiz boshqarish, uning uzluksiz va barqaror ishlashini ta'minlash hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan faoliyatni olib borish	D2.01.3	O'ziyurar rels payvandlash mashinasini texnik talablar va xavfsizlik qoidalariga muvofiq boshqarish hamda uning to'g'ri ishlashini ta'minlash
				D2.02.3	Mashinaning uzluksiz va barqaror ishlashini nazorat qilish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan choralarni amalga oshirish
		D3.3	Payvandlash jarayonida sifat ko'rsatkichlarini, texnologik intizomni va mehnat muhofazasi hamda texnika xavfsizligi talablariga to'liq rioya etilishini kompleks tarzda nazorat qilish va ta'minlash	D3.01.3	Payvandlash jarayonida belgilangan sifat standartlariga rioya etilishini nazorat qilish va nuqsonlarning oldini olish choralari ko'rish
				D3.02.3	Texnologik intizom talablariga amal qilinishini ta'minlash hamda ishlab chiqarish jarayonining belgilangan tartibda olib borilishini kuzatish
				D3.03.3	Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi qoidalariga to'liq rioya etilishini ta'minlash va xavf-xatarlarning oldini olish bo'yicha nazorat ishlarini amalga oshirish
		D4.3	O'ziyurar rels payvandlash mashinasining texnik holatini doimiy monitoring qilish, profilaktik xizmat ko'rsatish ishlarini tashkil	D4.01.3	O'ziyurar rels payvandlash mashinasining texnik holatini muntazam tekshirish va doimiy monitoring olib borish

4.	83110020-Temir yo'llarni ta'mirlash letuchkasi mashinisti		etish va yuzaga kelgan nosozliklarni o'z vaqtida aniqlash hamda bartaraf etish choralarini ko'rish	D4.02.3	Profilaktik texnik xizmat ko'rsatish ishlarini rejalashtirish va o'z vaqtida tashkil etish
				D4.03.3	Yuzaga kelgan nosozliklarni tezkor aniqlash, tahlil qilish va ularni bartaraf etish choralarini amalga oshirish
		E1.3	Temir yo'l uchastkalarida ta'mirlash ishlarini letuchka mashinasi yordamida bajarish va jarayonni boshqarish	E1.01.3	Temir yo'l uchastkalarida ta'mirlash ishlarini rejalashtirish, ish jarayonini tashkil etish va texnologik ketma-ketlikni belgilash
				E1.02.3	Letuchka mashinasi yordamida ta'mirlash jarayonini boshqarish, ish samaradorligini ta'minlash va bajarilgan ishlar sifatini nazorat qilish
		E2.3	Ta'mirlash letuchkasi mashinasini boshqarish, sozlash va uning uzluksiz ishlashini ta'minlash	E2.01.3	Ta'mirlash letuchkasi mashinasini texnik talablar va xavfsizlik qoidalariga muvofiq boshqarish hamda sozlash
				E2.02.3	Mashinaning uzluksiz va barqaror ishlashini ta'minlash, texnik holatini nazorat qilish va yuzaga kelgan nosozliklarni bartaraf etish
		E3.3	Temir yo'l infratuzilmasini ta'mirlash jarayonida texnologik talablar, sifat va xavfsizlik me'yorlariga rioya etilishini nazorat qilish	E3.01.3	Ta'mirlash jarayonida texnologik talablar va belgilangan tartiblarga rioya etilishini nazorat qilish
				E3.02.3	Bajarilayotgan ishlarning sifat ko'rsatkichlarini tekshirish va me'yorlarga mosligini ta'minlash
				E3.03.3	Temir yo'l infratuzilmasini ta'mirlash jarayonida texnologik talablar, sifat va xavfsizlik me'yorlariga to'liq rioya etilishini ta'minlash va jarayonni kompleks nazorat qilish.
				E3.04.3	Aniqlangan kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etish bo'yicha choralarni tashkil etish va amalga oshirish
		E4.3	Mashinaning texnik holatini nazorat qilish, profilaktik xizmat ko'rsatish va nosozliklarni	E4.01.3	Mashinaning texnik holatini muntazam tekshirish va ishlash parametrlarini nazorat qilish

5.	83110022-Temir yo'lni rixtovkalash dastgohlari mashinisti		bartaraf etish	E4.02.3	Profilaktik texnik xizmat ko'rsatish ishlarini rejalashtirish va o'z vaqtida amalga oshirish
				E4.03.3	Yuzaga kelgan nosozliklarni aniqlash, tahlil qilish va bartaraf etish choralarini ko'rish
				E4.04.3	Texnik xizmat va ta'mirlash ishlari bo'yicha hujjatlarni yuritish va hisobotlarni tayyorlash
		F1.3	Temir yo'lni rixtovkalash mashinasi ga texnik xizmat ko'rsatish ishlarini bajarish	F1.01.3	Korxona hududida, shuningdek, qurilish yoki ta'mirlash ishlari bajarilayotgan yo'llarda temir yo'lni rixtovkalash mashinasiga texnik xizmat ko'rsatish
				F1.02.3	Temir yo'lni rixtovkalash mashinasi hamda uning boshqarish uskunalarini soz holatda saqlash
		F2.3	Temir yo'lni rixtovkalash mashinasi bilan temir yo'llarni qurish hamda ta'mirlash ishlarini bajarish	F2.01.3	Yo'lning holatini, signalizatsiya, temir yo'llarni qurish va ta'mirlash ishlarini sifatli bajarilishini nazorat qilish
				F2.02.3	Temir yo'lni rixtovkalash mashinasi holatini ish joyiga borish va qaytish mobaynida uzluksiz nazorat qilish
		F3.3	Temir yo'lni rixtovkalash mashinasi ni boshqarish va ushbu drezinaga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha yordamchi ishlarni bajarish	F3.01.3	Temir yo'lni rixtovkalash mashinasi ni boshqarish, temir yo'l qurilishi va ta'miri bilan bog'liq yordamchi ishlarni bajarish
				F3.02.3	Ish davomida temir yo'lni rixtovkalash mashinasiga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha yordamchi ishlarni bajarish
				F3.03.3	Qabul qilish (topshirish) paytida yordamchi ta'mirlash ishlarini bajarish, temir yo'lni rixtovkalash mashinasini jihozlash, uni ishga tayyorlash
				F3.04.3	Temir yo'lni rixtovkalash mashinasini qabul qilish va ishga tayyorlash paytida unga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha ishlarni bajarish

				F3.05.3	Temir yo'lni rixtovkalash mashinasida yoki temir yo'lda paydo bo'lgan nosozliklarni bartaraf etish bo'yicha yordamchi ishlarni bajarish
6.	83110025-Tor (keng) temir yo'l yotqizuvchi mashinisti	G1.3	Temir yo'l yotqizuvchi kranga texnik xizmat ko'rsatish ishlarini bajarish	G1.01.3	Qurilish yoki ta'mirlash ishlari bajarilayotgan yo'llarda temir yo'l yotqizuvchi kranga texnik xizmat ko'rsatish
				G1.02.3	Temir yo'l yotqizuvchi kranni hamda uning boshqarish uskunalarini soz holatda saqlash
		G2.3	Temir yo'l yotqizuvchi kran bilan temir yo'llarni qurish hamda ta'mirlash ishlarini bajarish	G2.01.3	Yo'lning holatini, signalizatsiya, temir yo'llarni qurish va ta'mirlash ishlarini sifatli bajarilishini nazorat qilish
				G2.02.3	Temir yo'l yotqizuvchi kran holatini ish joyiga borish va qaytish mobaynida uzluksiz nazorat qilish
		G3.3	Temir yo'l yotqizuvchi kranni boshqarish va ushbu kranga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha yordamchi ishlarni bajarish	G3.01.3	Temir yo'l yotqizuvchi kranni boshqarish, temir yo'l qurilishi va ta'miri bilan bog'liq yordamchi ishlarni bajarish
				G3.02.3	Ish davomida temir yo'l yotqizuvchi kranga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha yordamchi ishlarni bajarish
				G3.03.3	Qabul qilish (topshirish) paytida yordamchi ta'mirlash ishlarini bajarish, temir yo'l yotqizuvchi kranni jihozlash, uni ishga tayyorlash
				G3.04.3	Temir yo'l yotqizuvchi kranni qabul qilish va ishga tayyorlash paytida unga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha ishlarni bajarish
				G3.05.3	Temir yo'lda paydo bo'lgan nosozliklarni bartaraf etish bo'yicha yordamchi ishlarni bajarish
7.	83110027-Yo'l strugi mashinisti	H1.3	Yo'l strugi mashinasini boshqarish va yo'l yuzasini sifatli tekislash ishlarini bajarish	H1.01.3	Yo'l yuzasini belgilangan texnologik talablar asosida tekislash, profil berish va sifatli shakllantirish ishlarini bajarish

				H1.02.3	Yo'l strugi mashinasini samarali, uzluksiz va xavfsiz boshqarish hamda ish jarayonida texnik talablarga rioya qilish
		H2.3	Ish jarayonini tashkil etish, rejalashtirish va bajarilgan ishlar sifatini nazorat qilish	H2.01.3	Ish jarayonini samarali tashkil etish, rejalashtirish va texnologik ketma-ketlik asosida boshqarish
				H2.02.3	Bajarilgan ishlar sifatini muntazam nazorat qilish, baholash va belgilangan standartlarga muvofiqligini ta'minlash
		H3.3	Mashinaning texnik holatini doimiy tekshirish, texnik xizmat ko'rsatish va nosozliklarni bartaraf etish	H3.01.3	Mashinaning texnik holatini muntazam tekshirish va diagnostika qilish
				H3.02.3	Texnik xizmat ko'rsatish ishlarini o'z vaqtida va sifatli bajarish
				H3.03.3	Aniqlangan nosozliklarni bartaraf etish va ta'mirlash ishlarini amalga oshirish
				H3.04.3	Mashinaning uzluksiz va ishonchli ishlashini ta'minlash
		H4.3	Yo'l qurilishi, rekonstruksiya va ta'mirlash ishlarida faol ishtirok etish hamda xavfsizlik qoidalariga qat'iy rioya qilish	H4.01.3	Yo'l qurilishi jarayonlarida faol ishtirok etish va belgilangan vazifalarni bajarish
				H4.02.3	Yo'l rekonstruksiya va ta'mirlash ishlarini texnologik talablar asosida amalga oshirish
				H4.03.3	Ish jarayonida mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi qoidalariga qat'iy rioya qilish
				H4.04.3	Favqulodda holatlarning oldini olish va xavfsiz ish muhitini ta'minlash
8.	83110021-Temir yo'lni dinamik stabillash mashinisti	J1.4	Temir yo'lni dinamik stabillash mashinasini ishga tayyorlash, texnik holatini tekshirish va belgilangan tartibda boshqarish	J1.01.4	Temir yo'lni dinamik stabillash mashinasining barcha uzal va agregatlarini ishga tushirishdan oldin tashqi va texnik ko'rikdan o'tkazish, soz holatini tekshirish
				J1.03.4	Mashinaning boshqaruv tizimlari (gidravlik, mexanik va elektron)ni ishga tayyorlash hamda belgilangan texnik reglamentga muvofiq sinovdan o'tkazish

				J1.02.4	Mashinani ish jarayonida belgilangan tartibda boshqarish, asosiy parametrlar (tebranish, bosim, tezlik)ni nazorat qilish va me'yorlardan chetga chiqmasligini ta'minlash
		J2.4	Temir yo'l ballast qatlamini vibratsion va mexanik usulda zichlash orqali yo'lning barqarorligi va geometriyasini mustahkamlash ishlarini bajarish	J2.01.4	Temir yo'l ballast qatlamining holatini baholash va stabillash jarayoni uchun mashinani ish uchastkasiga belgilangan tartibda joylashtirish
				J2.02.4	Vibratsion va mexanik tizimlarni ishga tushirib, ballast qatlamini texnologik rejimga muvofiq zichlash jarayonini bajarish
				J2.03.4	Ish jarayonida yo'l geometriyasi, zichlik darajasi va stabilizatsiya sifatini nazorat qilish hamda me'yorlardan og'ishlarni bartaraf etish
		J3.4	Ish jarayonida texnologik rejim, temir yo'l harakati xavfsizligi qoidalari va mehnat muhofazasi talablariga qat'iy rioya qilish	J3.01.4	Ish jarayonida belgilangan texnologik rejim (tezlik, tebranish parametrlari, ish bosimi va boshqalar)ga qat'iy rioya qilish va undan chetga chiqmaslik
				J3.02.4	Temir yo'l harakati xavfsizligi qoidalariga amal qilish, signal belgilarini to'g'ri tushunish va ularga muvofiq harakat qilish
				J3.03.4	Mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi talablariga rioya qilish, ish joyida xavfli holatlarning oldini olish choralarini ko'rish

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi:	Rels pletlarini eltishga mo'ljallangan maxsus sostav mashinisti	
Mashg'ulot nomining kodi:	83110	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	3	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Harakatdagi tarkib mashinistining amaldagi mashinist yordamchisi (mashinist yordamchisi nazarda tutilmagan tortish harakatdagi tarkib bundan mustasno) sifatida 12 oydan kam bo'lmagan mehnat stajiga ega bo'lish.	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar	Maxsus ruxsatlar: - tortish harakatdagi tarkibni ta'mirlash (tegishlilik) bo'yicha uchinchi razryaddan past bo'lmagan malaka pasportiga (sertifikatiga) ega bo'lish; - qonun hujjatlarida belgilangan tartibda majburiy dastlabki (ishga kirishda) va davriy tibbiy ko'rikdan (ko'rikdan), shuningdek, navbatdan tashqari tibbiy ko'rikdan (ko'rikdan) o'tish. Ishga munosabat va xulq atvor: - rahbarlariga o'z vaqtida va to'g'ri ma'lumotlarni taqdim etish; - o'z bilimi, tajribasi va vakolati doirasida qarorlar qabul qilish; - belgilangan vazifalarni ish vaqtidan unumli va oqilona foydalangan holda bajarish; - mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi, atrof muhitni muhofaza qilish, sanitariya gigiyena, yong'in va elektr xavfsizligi qoidalariga rioya qilish; - o'z tajribasini hamkasblari bilan bo'lishish; - jamoa bilan inoq ishlash; - o'z vazifalariga bog'liq yangilik va innovatsiyalarni kuzatib borish, o'zlashtirish va joriy qilish.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	o'rta maxsus ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	boshlang'ich professional ta'lim yoki o'rta maxsus ta'lim yoki umumiy o'rta ta'lim + norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reestrda mavjudligi:		
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	1–6 razryadli Rels pletlarini eltishga mo'ljallangan maxsus sostav mashinisti	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	3	Relsjilvirlash poyezdi mashinisti
	3	Relspayvandlash o'zi yurar mashina mashinisti
	3	Relstaxlagich mashinisti

Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
A1.3 Maxsus sostavning texnik holatini tekshirish	A1.01.3 Yurish qismlarini tekshirish (g'ildirak juftliklari, ressorlar, ramalar), Tormoz tizimi holatini tekshirish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. G'ildirak juftliklari, akslar va ramalarni vizual ko'rikdan o'tkazib, ularning shikastlanishi, yoriqlari yoki deformatsiyalarini aniqlaydi
		2. Ressorlar va amortizatorlar holatini tekshirish, ularning ishga yaroqliligini baholash va kerak bo'lsa sozlash ishlarini amalga oshiradi
		3. Tormoz tizimi komponentlarini (tormoz disk, kaliper, balonlar va havo liniyalari) tekshirib, ishlash holatini aniqlaydi
		4. Tormozning bosim darajasi va pnevmatik tizimning ishlashini sinovdan o'tkazish, nosozlik yoki bosim pasayishini aniqlaydi
		5. Har bir komponentni tekshirish natijasini qayd etish va aniqlangan kamchiliklarni mashinistga yoki ustozga xabar beradi
		6. Tekshirish jarayonida xavfsizlik qoidalariga rioya qilish, yuqori kuchlanish va harakatdagi qismlardan himoyalash choralarini qo'llash
		Ko'nikmalar:
		G'ildirak juftliklari, ramalar va ressorlarni ko'z bilan tekshirish, singan yoki deformatsiyaga uchragan qismlarni aniqlash
		Tormozning samaradorligini baholash va tizimdagi nosozliklarni aniqlash
		Yurish qismlarini va tormoz tizimini muntazam nazorat qilib, nosozliklarni oldindan aniqlash orqali poyezd harakatining xavfsizligini ta'minlash
		Bilimlar:
		G'ildirak juftliklari, ramalar, bog'lamlar va ressorlarning nomi, vazifasi va ishlash printsiplari bilish
		Tormozning turlari, tormoz pedali va releyni vazifasi, ishlash tartibi va samaradorligini bilish
		Rels platformasi ramalari, ulanish nuqtalari va mustahkamlik printsiplari haqida bilish
		Vizual va mexanik tekshiruv tartibi, singan yoki shikastlangan qismlarni aniqlash
		Ish vaqtida xavfsizlik talablariga rioya qilish, mashinaning ishlashga tayyorlashni bilish
		O'lchov asboblari, tormoz tester va boshqa tekshiruv vositalaridan to'g'ri foydalanishni bilish

QCL7527	A1.02.3 Elektr jihozlari va signalizatsiya tizimini tekshirish, Mahkamlash va tayanch qurilmalarining holatini tekshirish	Aniqlangan nosozliklarni qayd etish, texnik xizmatga topshirish va rasmiy hisobot shaklida yozishni bilish
		Mehnat harakatlari:
		1. Vizual tekshiruv elektr jihozlari va signalizatsiya qurilmalarining tashqi holatini ko'z bilan tekshirish, singan yoki shikastlangan qismlarni aniqlaydi
		2. Mahkamlash qismlarini tekshirish vintlar, murvatlar, klapanlar va boshqa mahkamlash elementlarining mahkamligini baholaydi
		3. Signalizatsiya tizimi ish faoliyatini sinash signalizatorlar, chiroqlar, pleyerlar va releylarning ishlashini tekshiradi
		4. Elektr aloqalarini nazorat qilish simlar, kontaktlar va terminal qismlarning holatini tekshirish, izolyatsiya yoki uzilishlar mavjudligini aniqlaydi
		5. Tayanch qurilmalarining holatini tekshirish rels platformasi, qo'llab-quvvatlash qurilmalari va tayanch elementlarning deformatsiya yoki shikastlanish yo'qligini tekshiradi
		6. Mexanik harakatlarni sinash o'rnatilgan mexanizm va qurilmalarning erkin harakat qilishini baholaydi
		7. Nosozliklarni aniqlash va belgilash aniqlangan muammoli qismlarni belgilar yordamida ajratish va texnik xizmatga topshirishga tayyorlaydi
		8. Texnik vositalardan foydalanish tester, voltmetr, ampermetr va boshqa elektr tekshiruv asboblari ishlatadi
		9. Natijalarni qayd etish va hisobot tayyorlash tekshiruv natijalarini yozma shaklda qayd etish va rasmiy hisobot tayyorlaydi
		Ko'nikmalar:
		Elektr jihozlari, signalizatsiya qurilmalari va tayanch elementlarni ko'z bilan tekshirish, singan yoki shikastlangan qismlarni aniqlash
		Vintlar, murvatlar, klapanlar va tayanch qurilmalarni mahkamlash, ularning mustahkamligini baholash, mexanik qismlarning erkin harakatini sinash
		Signalizatorlar, relelar, kontaktlar va simlarning ishlashini tester, voltmetr va boshqa asboblari yordamida nazorat qilish
		Aniqlangan muammoli qismlarni belgilash, texnik xizmatga topshirish va tekshiruv natijalarini rasmiy hisobot shaklida qayd etish
		Bilimlar:
		Elektr jihozlari tuzilishi bo'yicha bilim signalizatorlar, relelar, chiroqlar, kontakt va terminal qismlarning nomi va vazifalarini bilish
		Signalizatsiya tizimi ishlash printsipi tizimning ishlash

		tartibi, signal berish va qabul qilish mexanizmlarini bilish
		Elektr aloqalari va simlarni nazorat qilish bilimlari izolyatsiya, uzilish, qisqa tutashuv va kontaktlar holatini aniqlash usullarini bilish
		Mahkamlash elementlari va tayanch qurilmalarining tuzilishi vint, murvat, klapan va qo'llab-quvvatlash elementlarining nomi, vazifasi va ishlash printsiplari
		Tayanch qurilmalarining holatini baholash bilimlari deformatsiya, shikastlanish va mexanik mustahkamlikni aniqlash usullari
		Texnik tekshiruv usullari vizual va mexanik tekshiruv, harakat va ish faoliyatini sinash tartiblari
		Texnik vositalar bilan ishlash bilimlari voltmetr, ampermetr, tester va boshqa elektr asboblardan foydalanish qoidalari
		Nosozliklarni aniqlash va belgilash bilimlari muammoli qismlarni aniqlash, belgilash va texnik xizmatga topshirish tartibi
		Hisobot va qayd etish bilimlari tekshiruv natijalarini yozma shaklda qayd etish va rasmiy hisobot tayyorlash qoidalari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Vazifalarni o'z vaqtida bajarish mas'uliyati, tekshiruv va mahkamlash ishlarini belgilangan muddatda va to'liq bajarish.
		2. Xavfsizlikni ta'minlash mas'uliyati, ish vaqtida o'zi va atrofdagilarning xavfsizligini nazorat qilish.
		3. Aniqlangan nosozliklar uchun javobgarlik, shikastlangan yoki nosoz qismlarni aniqlash va to'g'ri texnik xizmatga topshirish
		4. Texnik vositalardan to'g'ri foydalanish mas'uliyati, tester, voltmetr va boshqa asboblarni noto'g'ri ishlatmaslik.
		5. Hisobot va qaydlarni to'g'ri yuritish mas'uliyati, tekshiruv natijalarini aniq va rasmiy shaklda qayd etish.
		6. Ishni mustaqil bajarish qobiliyati, topshiriqlarni nazoratga kamroq tayanib, o'z-o'zini boshqarish.
		7. Muammo aniqlashda mustaqillik, nosozlik yoki shikastlangan qismlarni o'zi aniqlash va ularni belgilash.
A2.3 Rels pletlarini yuklash va tushirish jarayonida ishtirok etish, Relslarning to'g'ri joylashtirilishi va mahkamlanishini tekshirish	A2.01.3 Rels pletlarini yuklashdan oldin maxsus sostavning texnik holatini, yuk qabul qilishga tayyorgarligini hamda barcha tayanch va	Mehnat harakatlari:
		1. Mashina va maxsus sostavni vizual tekshiruvdan o'tkazish, g'ildiraklar, ramalar, bog'lamlar va boshqa yurish qismlarining holatini ko'zdan kechirish. 2. Rels pletlarini yuklash tayyorgarligini baholash, relslarni xavfsiz va samarali yuklash uchun joylashuv va barqarorlikni tekshirish.

QCL7527	mahkamlash moslamalarining sozligini to'liq va batafsil ko'zdan kechirish vazifasini bajarish	3. Tayanch qurilmalarini tekshirish, rels platformasidagi barcha tayanch elementlar va ularning mustahkamligini ko'zdan kechirish.
		4. Mahkamlash moslamalarini tekshirish, vintlar, murvatlar, klapan va boshqa mahkamlash qismlarining to'g'ri va mustahkam o'rnatilganligini aniqlash.
		5. Yuk qabul qilish tizimini sinash, rels pletlarini yuklash jarayonida tizimning ishlash qobiliyatini baholash va xavfsizligini tekshirish.
		6. Aniqlangan nosozliklarni belgilash, shikastlangan yoki noto'g'ri o'rnatilgan qismlarni belgilash va texnik xizmatga topshirish.
		7. Tekshiruv natijalarini qayd etish, barcha ko'zdan kechirish natijalarini yozma shaklda qayd etish va hisobot tayyorlash.
		Ko'nikmalar:
		G'ildiraklar, ramalar, bog'lamlar, tayanch va mahkamlash moslamalarini ko'z bilan tekshirish, shikastlangan yoki noto'g'ri o'rnatilgan qismlarni aniqlash.
		Vintlar, murvatlar, klapanlar va tayanch elementlarning mustahkamligini sinash, to'g'ri va xavfsiz o'rnatilganligini ta'minlash.
		Rels pletlarini xavfsiz va samarali yuklash uchun platforma va tizimning tayyorligini tekshirish.
		Tekshiruv natijalarini yozma shaklda qayd etish, muammoli qismlarni belgilash va hisobot shaklida tayyorlash.
		Bilimlar:
		G'ildiraklar, ramalar, bog'lamlar va boshqa harakat qismlarning nomi, vazifasi va ishlash printsiplari.
		Tayanch elementlarining vazifasi, ishlash mexanizmi va barqarorlik printsiplari.
		Vint, murvat, klapan va boshqa mahkamlash qismlarining nomi, vazifasi va ishlash tartibi.
		Relslarning joylashuvi, barqarorligi va xavfsiz yuklash printsiplari.
		Vizual va mexanik tekshiruv, nosoz qismlarni aniqlash tartibi.
		Ish vaqtida xavfsizlik talablari, mashinaning ishlashga tayyorligini tekshirish va xavfsiz ishlash qoidalari.
		O'lchov asboblari, tester va boshqa tekshiruv vositalaridan to'g'ri foydalanish.
		Tekshiruv natijalarini yozma shaklda qayd etish va rasmiy hisobot tayyorlash tartibi.
		Mehnat harakatlari:

	A2.01.3 Rels pletlarini sostav platformalariga belgilangan texnologik tartib va me'yorlarga muvofiq ravishda to'g'ri, tekis va muvozanatli qilib joylashtirilishini ta'minlash hamda og'irlik markazining to'g'ri taqsimlanishini nazorat qilish	1. Rels pletlarini joylashtirish tayyorgarligi, platformaning tekisligi, tayanch va mahkamlash moslamalarini ko'zdan kechirish va yuklashga tayyorlash.
		2. Rels pletlarini belgilangan tartibda joylashtirish, har bir pletni texnologik tartib va me'yorlarga muvofiq platformaga o'rnatish.
		3. Tekislik va muvozanatni ta'minlash, pletlarning bir-biriga nisbatan tekis va barqaror joylashishini nazorat qilish.
		4. Og'irlik markazini nazorat qilish, platformaga yuklash paytida og'irlik markazi to'g'ri taqsimlanganligini tekshirish.
		5. Mahkamlash va ushlab turish ishlarini bajarish, pletlarni mahkamlash moslamalari yordamida xavfsiz va barqaror holatda o'rnatish.
		6. Tekshiruv va natijalarni qayd etish, yuklash jarayonini nazorat qilish, aniqlangan kamchiliklarni belgilash va hisobot tayyorlash.
		Ko'nikmalar:
		Belgilangan texnologik tartib va me'yorlarga muvofiq pletlarni platformaga to'g'ri joylashtirish.
		Pletlarning bir-biriga nisbatan tekis va barqaror joylashishini nazorat qilish.
		Yuklash paytida og'irlik markazi teng va xavfsiz taqsimlanganligini aniqlash.
		Pletlarni mahkamlash moslamalari yordamida xavfsiz va barqaror holatda o'rnatish hamda yuklash jarayonini nazorat qilish.
		Bilimlar:
		Rels pletlari tuzilishi va o'lchamlari, pletlarning nomi, vazifasi va o'lchamlarini bilish.
		Sostav platformasi tuzilishi, platformaning ramasi, tayanch elementlari va barqarorlik nuqtalari haqida bilim.
		Texnologik tartib va me'yorlar, rels pletlarini platformaga joylashtirishda amal qilinadigan standart tartib va masofalar.
		Yukning og'irligi va taqsimlanishi, pletlar yukining og'irlik markazi va teng taqsimlanishi printsiplari.
		Tekislik va muvozanat nazorati, pletlarning bir-biriga nisbatan tekis va muvozanatli joylashishini aniqlash usullari.
		Mahkamlash moslamalari va ularning ishlash printsiplari, vint, murvat, klapan va boshqa mahkamlash qismlari haqida bilim.
		Xavfsizlik qoidalari, yuklash va pletlarni joylashtirish paytida xavfsizlik talablari va me'yorlari.

		Yuklash jarayonini nazorat qilish, pletlarning platformaga joylashtirilishi va og'irlik markazi tekshiruvi bo'yicha bilim.
		Texnik tekshiruv usullari, vizual va mexanik tekshiruv orqali kamchiliklarni aniqlash tartibi.
		Hisobot va qayd etish bilimlari, tekshiruv va yuklash natijalarini yozma shaklda qayd etish va rasmiy hisobot tayyorlash qoidalari.
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Rels pletlarini belgilangan tartib va me'yorlarga muvofiq Joylashtirishni o'z vaqtida va to'liq bajarish.
		2. Yuklash va mahkamlash ishlarida o'zi va atrofdagilarning xavfsizligini nazorat qilish.
		3. Platformaga yuklash paytida og'irlik markazi teng va xavfsiz taqsimlanganligini nazorat qilish.
		4. Vint, murvat va tayanch qismlarni to'g'ri o'rnatilganini ta'minlash.
		5. Nosoz yoki noto'g'ri joylashtirilgan pletlarni o'zi aniqlash va belgilash.
		6. Yuklash jarayoni va tekshiruv natijalarini to'g'ri va rasmiy shaklda qayd etish.
	A3.3 Poyezdni belgilangan tezlik va rejimda boshqarish, Tormozlash va tezlikni o'zgartirishni silliq amalga oshirish, Signal va belgilar talablariga rioya qilish	Mehnat harakatlari:
		1. Poyezd tezligini boshlashdan oldin tekshirish, belgilangan tezlik chegaralarini va yo'l sharoatini hisobga olish.
		2. Yo'l sharoatini baholash, egri chiziqlar, balandlik o'zgarishi, tunnel va ko'priklar kabi yo'l elementlarini ko'zdan kechirish.
		3. Yuk og'irligini hisobga olish, poyezdning umumiy og'irligi va yuk taqsimotini aniqlash.
		4. Tezlikni bosqichma-bosqich oshirish, belgilangan limit va yo'l sharoatiga muvofiq tezlikni oshirish.
		5. Tezlikni kamaytirish va tormozlash, to'siqlar, signal va xavfli bo'limlarga yaqinlashganda xavfsiz tezlikni saqlash.
		6. Tormoz tizimini nazorat qilish, poyezd harakati davomida tormozlarning samaradorligini tekshirish va kerak bo'lganda ishlatish.
		7. Signalizatsiya va belgilarni kuzatish, yo'l belgilari, signal chiroqlari va ogohlantirish belgilariga e'tibor berish.
		8. Harakat barqarorligini saqlash, tezlik va yo'l sharoatiga mos ravishda poyezdni tekis boshqarish.
		9. Ogohlantiruvchi vositalardan foydalanish, signal, chiroq va shovqinli vositalar yordamida xavfsizlikni ta'minlash.
		10. Favqulodda vaziyatlarga tayyor turish, to'satdan paydo bo'lishi mumkin bo'lgan to'siqlar yoki nosozliklarga tezkor javob berish.

	QCL7527	11. Harakat parametrlarini qayd etish, tezlik, tormoz va yo'l sharoati bo'yicha o'z vaqtida nazorat va yozuvlarni yuritish.
		12. Poyezd qismlarini kuzatish, g'ildirak, ramalar va boshqa yurish qismlarining harakat jarayonida normal ishlashini tekshirish.
		13. Xavfsizlik choralari amalga oshirish, poyezd harakatida o'zini va atrofdagilarni xavfsiz saqlash uchun doimiy choralarni bajarish.
		Ko'nikmalar:
		Belgilangan tezlik chegaralarini saqlash va yo'l sharoatiga mos tezlikni tanlash.
		Egri chiziqlar, balandlik o'zgarishi, tunnel va ko'priklar kabi yo'l elementlarini kuzatish.
		Poyezdning umumiy og'irligi va yuk taqsimotini tekshirish va harakatga moslash.
		Harakat davomida tormozlarning samaradorligini nazorat qilish va kerak bo'lganda xavfsiz ishlatish.
		To'satdan paydo bo'lishi mumkin bo'lgan xavf yoki nosozliklarga tezkor javob berish.
		Yo'l belgilari, signal chiroqlari va ogohlantirish belgilariga doimiy e'tibor berish.
		Tezlik va yo'l sharoatiga mos ravishda poyezdni tekis va muvozanatli boshqarish.
		Bilimlar:
		Poyezd tezligi chegaralari, belgilangan maksimal va minimal tezlik qoidalari.
		Yo'l sharoati turlari, egri chiziqlar, balandlik o'zgarishi, tunnel va ko'priklar kabi yo'l elementlari.
		Yuk og'irligi va taqsimlanishi, yukning og'irligi, markazi va barqarorlikka ta'siri.
		Tormoz tizimi ishlash printsipi, poyezd tormozlari qanday ishlashi, tormozlash masofasi va samaradorligi.
		Tezlikni oshirish va kamaytirish qoidalari, xavfsiz tezlikni o'zgartirish tartibi.
		Signalizatsiya tizimi va yo'l belgilarini tushunish, signal chiroqlari, belgilar va ogohlantirish signallarini kuzatish.
		Favqulodda vaziyatlarni aniqlash bilimlari, to'satdan paydo bo'lishi mumkin bo'lgan xatarlar va nosozliklarni aniqlash.
		Harakat barqarorligi printsiplari, tezlik va yo'l sharoatiga mos ravishda poyezdni barqaror boshqarish.
		Ogohlantiruvchi vositalardan foydalanish, signal, chiroq va shovqinli vositalar yordamida xavfsizlikni ta'minlash.

		Yuklash va qismlar holatini kuzatish bilimlari, g'ildiraklar, ramalar va boshqa yurish qismlarining holatini nazorat qilish.
		Texnik vositalardan foydalanish bilimlari, tezlik, tormoz va boshqa parametrlarni o'lchash va nazorat qilish asboblari.
		Hisobot va qayd etish bilimlari, harakat parametrlari va tekshiruv natijalarini yozma shaklda qayd etish va hisobot tayyorlash.
	A3.02.3 Tormozlashni oldindan rejalashtirib, tormozlarni silliq qo'llash orqali keskin to'xtashlarning oldini olish	Mehnat harakatlari:
		1. Tormozlash masofasini oldindan aniqlash, yo'l sharoati, tezlik va yuk og'irligini hisobga olib tormozlash masofasini rejalashtirish.
		2. Tormoz tizimini tekshirish, tormozlarning ishlash qobiliyati va samaradorligini harakat boshlashdan oldin nazorat qilish.
		3. Tezlikni moslashtirish, tormozlash jarayonida poyezd tezligini silliq kamaytirish uchun oldindan tayyorgarlik ko'rish.
		4. Silliq tormozlashni amalga oshirish, tormozlarni asta-sekin va nazorat ostida qo'llash orqali keskin to'xtashlarni oldini olish.
		5. Yo'l belgilarini va xavfli bo'limlarni kuzatish, tormozlashni rejalashtirishda signal, belgi va to'siqlarni hisobga olish.
		6. Tormozlash natijasini nazorat qilish, tormozlash jarayonida poyezd barqarorligini saqlash va kerak bo'lsa sozlash.
		Ko'nikmalar:
		Yo'l sharoati, tezlik va yuk og'irligini hisobga olib tormozlash masofasini oldindan aniqlash va rejalashtirish.
		Tormozlarning ishlash qobiliyati va samaradorligini nazorat qilish, nosoz qismlarni aniqlash.
		Tormozlash jarayonida poyezd tezligini silliq va barqaror kamaytirishni ta'minlash.
		Tormozlarni asta-sekin va nazorat ostida qo'llash orqali keskin to'xtashlarning oldini olish.
		Signal chiroqlari, belgilar va xavfli yo'l bo'limlarini kuzatib, tormozlashni moslash.
		Tormozlash jarayonida poyezd barqarorligini saqlash, kerak bo'lsa tezlikni va tormoz kuchini sozlash.
		Bilimlar:
		Tormozlash printsipi, poyezd tormozlash tizimining ishlash mexanizmini tushunish.
		Tormozlash masofasi hisoblash bilimlari, tezlik, yuk og'irligi va yo'l sharoatini hisobga olgan holda tormozlash masofasini aniqlash.

		Tezlik va uning xavfsizlikka ta'siri, poyezd tezligi va barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlik.
		Yo'l sharoati turlari, egri chiziqlar, balandlik o'zgarishi, tunnel va ko'priklar kabi yo'l bo'limlarini hisobga olish.
		Yuk og'irligi va taqsimlanishi, yuk markazi va umumiy og'irlikning tormozlashga ta'siri.
		Tormoz tizimi turlari, havoli, elektromexanik va boshqa tormoz tizimlarining ishlash xususiyatlari.
		Silliq tormozlash texnikasi, tormozni asta-sekin va barqaror qo'llash qoidalari.
		Favqulodda vaziyatlarni aniqlash, yo'l bo'yicha to'satdan paydo bo'lishi mumkin bo'lgan xatarlar va nosozliklarni aniqlash.
		Yo'l belgilarini va signalizatsiya tizimini tushunish, chiroqlar, belgi va ogohlantirish signalini kuzatish.
		Barqarorlikni saqlash printsiplari, tormozlash jarayonida poyezdning barqaror harakatini ta'minlash.
		Ogohlantiruvchi vositalardan foydalanish, signal, chiroq va shovqinli vositalar yordamida xavfsizlikni ta'minlash.
		Tezlikni nazorat qilish bilimlari, poyezdning harakat tezligini va tormozlash jarayonidagi tezlikni boshqarish.
		Nosozlik va kamchiliklarni aniqlash bilimlari, tormoz tizimida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni aniqlash.
		Hisobot va qayd etish bilimlari, tormozlash jarayonidagi parametrlarni yozma shaklda qayd etish va rasmiy hisobot tayyorlash.
	A3.03.3 Signalizatsiya va yo'l belgilariga qat'iy rioya qilib, svetofor va dispetcher ko'rsatmalarini bajarish	Mehnat harakatlari:
		1. Yo'l belgilari va svetoforlarni doimiy kuzatish, signal va chiroqlarni e'tibor bilan kuzatish.
		2. Svetofor ko'rsatmalarini bajarish, harakatni boshlash, to'xtash yoki sekinlash bo'yicha svetofor belgilariga qat'iy rioya qilish.
		3. Dispetcher ko'rsatmalarini qabul qilish, radio, telefon yoki boshqa aloqa vositalari orqali berilgan ko'rsatmalarni eshitish va tushunish.
		4. Ko'rsatmalarga tezkor javob berish, svetofor va dispetcher belgilariga muvofiq harakatni darhol boshqarish.
		5. Favqulodda signal va ogohlantirishlarga javob berish, favqulodda to'xtash yoki sekinlash talab qilingan vaziyatlarda harakatni boshqarish.
		6. Yo'l sharoatini kuzatib boorish, signal va belgilarni bajarish bilan birga, yo'lning xavfsizligini nazorat qilish.

